



D) g`o`zada vilt kasalligining yuzaga kelishi

4.Zamburug`lar (a) va viruslarlar (b) faoliyati bilan bog`liq jarayonlarni aniqlang.

1) qizamiq kasalligini qo`zg`atish 2) quyosh nuri ta`sirida organik birikmalar hosil qilishi 3) tuproqda atmosferadagi erkin azotning o`zlashtirilishi 4) mikorizada ishtirok etishi

A) a-1 b-2 B) a-2 b-3 C) a-3 b-2 D) a-4 b-1

5.Achitqi zamburug`idagi qaysi xususiyatlar lishaynikda ham uchraydi.

1) avtotrof oziqlanish 2) geterotrof oziqlanish 3) hujayrasi yadroga ega 4) hujayrasi xitin qobiqli 5) parazit hayot tarzi 6) eukariot organizm

A) 3,6 B) 2,6 C) 4,5 D) 1,5

6.Achitqi zamburug`iga xos belgilarni ko`rsating.

1.bir hujayrali 2.ko`p hujayrali 3.hujayralari ovalsimon 4.hujayralari duksimon 5.hujayralari qobiq bilan o`ralgan 6.hujayrasi qobiq bilan o`ralmagan 7.kraxmalni spirt va karbonat angidridga parchalaydi 8.kraxmalni spirt va shakarga parchalaydi 9.kurtaklanib ko`payadi 10.hujayra 2 ga bo`linish bilan ko`payadi

A) 1,3,5,7,9 B) 2,4,6,8,10 C) 1,3,5,7,9,10 D) 2,6,7,5,10

7.Zamburug`larning o`shishi uchun zarur sharoit.

1) namlik 2) issiqlik 3) yorug`lik 4) oziq modda

A) 1,3 B) 1,2 C) 1,2,4 D) 1,4

8.Zamburug`lar asosan nimasiga qarab bir-biridan ajratiladi.

A) sporasining yetilishiga qarab B) sporasining shakliga qarab

C) mevasining shakliga qarab D) yashash sharoitiga qarab

9.Penitsill zamburug`i qanday zamburug`lar vakili hisoblanadi.

A) mog`or B) achitqi C) vertitsilium D) qalpoqchali

10.Zamburug`ning mevasi .....

A) anterdiy hosil qiluvchi organ B) spora hosil qiluvchi organ

C) arxegoniyli meva tanasi D) urug` hosil qiluvchi organ

**3.Quyidagi blits savollarga javob bering.**

1.Bazidiomikotlar yashab turgan joyiga ko`ra qanday guruhlarga bo`linadi?

2.Qaysi bazidiomikot zamburug`lar istemol qilinadi?

3.O`simliklarda kasalliklarni qaysi bazidiomikotlar qo`zg`atadi, ular qanchalik zararli?

4.Askomikotlar qanday belgi va xususiyatlarga ega?